

## OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

15«12»2022yil.

4251-13-182-TB/2022-son

**“ELDOR DONYOR” XK**, keyingi o’rinlarda “Sotuvchi” deb yuritiladi. uzining Ustavi asosida ish yurituvchi Primov Nurmuxammad bir tomondan va Beruniy tumani tibbiyot birlashmasi keyingi o’rinlarda “Sotib oluvchi” deb yuritiladi, Uzining ustavi asosida ish yurituvchi rahbar D. B. Palvanov ikkinchi tomondan mazkur shartnomani , “Eng yaxshi takliflarni tanlash” bo‘yicha maxsus informatsion portaliga joylashtirilgan № 202356 sonli lotga asosan tuzilgan elektron bayonnomma bo‘yicha quyidagilar haqida tuzdilar.

### SHARTNOMANING PREDMETI.

“Sotuvchi” uziga tegishli bulgan tovar(mahsulot)ni ushbu spesifikatsiyaga asosan Sotib oluvchiga uz vaqtida sifatli qilib yetkazib berish, “Sotib oluvchi” esa tovar(mahsulot)ni qabul qilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to’lash majburiyatini oladi.

№	Mahsulot nomi	Ul. bir	Miq dori	Narxi	Etkazib berish <b>qiymati</b>	QQS		Etkazib berishning QQS xisobga olingan qiymati
						stav kasi	summasi	
1	STOL	dona	100	1071304,35	107130435	15	16069565	123200000
2	STUL	dona	400	326086,96	130434784	15	19565216	150000000
3	TUMBOCHKA	dona	303	473913,04	143595651	15	21539349	165135000
4	KARAVAT	dona	280	2243478,26	628173913	15	94226087	722400000
5	Funksional karavat (uch qismli, plastik tomonlari va mexanik haydaluvchi )	dona	37					343730000
				8078260,87	298895652	15	44834348	
6	Shifokorlar uchun shkaf	dona	50	2243478,26	112173913	15	16826087	129000000
7	Funksional bolalar karavat (ikki qisqli)	dona	9	3434782,61		15		35550000
					30913043		4636957	
8	Shtativ	dona		156521,74		15		18000000
			100		15652174		2347826	
9	Shifokorlar uchun tibbiy stol (ikki tumbali)	dona	50	1521739,13		15		87500000
					76086957		11413043	
	JAMI				1543056522		231458478	1774515000

1.2. Shartnomaning umumiy summasi: 1 774 515 000 (Bir milliard yetti yuz yetmish to‘rt million besh yuz o‘n besh ming ) sum 00 tiyinni tashkil kiladi.

### 2. YETKAZIB BERISH VA XISOB-KITOB SHARTLARI

2.1. “Sotib oluvchi” mazkur shartnomani G’aznachilik boshqarmasida ruyxatga olingan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnoma umumiy summasidan 15% miqdorida (shartnoma summasidan 15% miqdorida) oldindan tulash majburiyatini oladi, qolgan 85% ni tovarni olgandan sung 5 bank ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida tulaydi.

2.2. “Sotuvchi” avans mablag‘lari uzining tegishli hisobvarag‘iga kelib tushgan vaqtadan boshlab 5 bank ish kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. “Sotuvchi” amaldagi GOST ga muvofiq tovarni yetkazib berishi shart.

2.4. “Sotib oluvchi” tovarlarni qabul qilishda “Sotuvchi” ishtirokida olinayotgan tovarlarning to‘liqligini va sifatini shartnomaning 1.1-bandida ko‘rsatilgan tovarlarga muvofiqligini tekshirishi shart.

2.5. Sotib olingan tovar (mahsulot)larni yetkazib berish “Sotuvchi” ning zimmasida bo’ladi.

2.6 “Sotib oluvchi”ning roziligidagi ko’ra tovar (mahsulot) muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin.

2.6. Sotilgan tovar (mahsulot) bevosita “Sotib oluvchi”ning mas’ul xodimlari tomonidan hisob-faktura buyicha qabul qilinadi va unda yetkazib berilgan tovar (mahsulot)larning miqdori, uning sifati ko’rsatiladi.

2.7. Mazkur shartnomada ko’zda tutilgan tovar (mahsulot)larni yetkazib berish, mazkur shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

## TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

“Sotib oluvchi”ning huquqlari:

“Sotuvchi”dan shartnomani bajarish uchun zarur bo’lgan davlat standartlari va boshqa me’yoriy hujjatlar bilan ta’minalashni talab qilish;

3.1.2. “Sotuvchi”dan mazkur shartnomaga muvofiq, tegishli sifat, assortiment buyicha tovar (mahsulot) larni yetkazib berishni talab qilish;

3.1.3 Sifatsiz tovar (mahsulot) yetkazib berilganda uz ixtiyoriga ko’ra “Sotuvchi”dan quyidagilardan birini talab qilish:

- tegishli sifatdagi shunga o’xhash tovar (mahsulot) bilan almashtirib berish;
- kamchiliklarni beg’araz bartaraf etish;
- “Sotuvchi”dan mazkur shartnomada shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

“Sotib oluvchi”ning majburiyatları:

3.2.1. Mazkur shartnomaga muvofik yetkazib berilgan tovar (mahsulot) larni qabul qilish;

3.2.2. Tovarlarning qiymatini mazkur shartnomada belgilangan narxda va muddatlarda to’lash.

“Sotuvchi”chining xuquqlarga:

“Sotib oluvchi” dan oldindan avans tulovni va yetkazib berilgan tovar (mahsulot) lar uchun yakuniy xisob-kitoblarni O’zbekistan Respublikasining amaldagi qonunchiligidida kuzda tutilgan tartibda va xajmlarda amalga oshirishni talab qilish;

“Sotib oluvchi”dan shartnomaga muvofik, yetkazib berilgan tovar (mahsulot) larni asossiz ravishda qabul qilmaslik natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berishni talab qilish.

“Sotuvchi”ning majburiyatları:

3.4.1. Buyurtmachiga tovarlarni mazkur shartnomaga muvofik belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda yetkazib berish;

3.4.2. Agar tovar (maxsulot) larni yetkazib berish jarayonida “Sotuvchi” shartnomada shartlari va me’yorlardan yoki O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan chetga chiqishga yo’l quygan hollarda “Sotib oluvchi” ning talabi buyicha 5 bank ish kuni ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg’araz bartaraf etish.

3.5. Mazkur shartnomada belgilangan tartibda mazkur shartnomada shartlari va talablari hamda O’zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.

3.6. Tomonlar uz zimmalariga olgan barcha majburiyatlarining ijrosini ta’milagan taqdirda shartnomada bajarilgan xisoblanadi.

## TOMONLARNING JAVOBGARLIKHLARI

Tovar (maxsulot) larni tanlab olmaslik, shuningdek “Sotuvchi” shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovar (mahsulot)larni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun “Sotib oluvchi” “Sotuvchi”ga tanlab olinmagan (o’z muddatida olinmagan) tovar (maxsulot)lar qiyomatining 5 (besh) foizi miqdorida, tez buziladigan tovar (mahsulot)lar buyicha esa — 10 (un) foiz miqdorida jarima tulaydi.

Tovar (maxsulot)lar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, “Sotuvchi” jarima undirishdan tashkari, ushbu tovar (mahsulot)lar mavjudligining kafolatlarini tegishli hujjatlari bilan taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o’z muddatida olinmagan) tovar (mahsulot) lar qiyomi tulanishini talab qilishga haqlidir.

To’lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek xisob-kitobning boshqa shakllarida tovar (mahsulot) lar haqini to’lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to’lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va xokazo) uchun “Sotib oluvchi” “Sotuvchi”ga o’zi to’lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 (un besh) foizi miqdorida jarima tulaydi.

Yetkazib berilgan tovar (maxsulot) lar haqini o’z vaqtida tulamaganlik uchun “Sotib oluvchi” “Sotuvchi”ga o’tkazib yuborilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to’lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan tulov summasining 50 foizidan ortiq bo’lmagan miqdorida penya to’laydi.

“Sotuvchi”:

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni yetkazib berish muddatlari va joyi buyicha "Sotuvchi" shartnoma shartlarining "Sotib oluvchi" nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

- shartnoma shartlarining boshqa buzilishlari;
- tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.4. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi buyicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (elonlarga) qonun xujjatlarida yoki iqtisodiy shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, "Sotib oluvchi" tovar (mahsulot) larni qabul qilish xamda ularning xaqini tulashni rad etib, yetkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lмаган tovarlar qiyamatining 20 (yigirma) foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar xaqi tulab quyilgan bo'lsa, tulangan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lмаган tovar (mahsulot) lar yetkazib bergenlik uchun jarima "Sotuvchi"dan akseptsiz tartibda o'ndirib olinadi.

4.5. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, tuliq yetkazib berilmagan, tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar baxosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovar (mahsulot) larni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.6. Marka belgisi quyilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovar (mahsulot) larni, shuningdek idishsiz yoki uralmagan tovar (mahsulot) larni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada uralmagan tovar (mahsulot) larni yetkazib bergenlik uchun "Sotuvchi" "Sotib oluvchi"ga bunday tovar (mahsulot) lar qiyamatining 5 foizi miqdorida jarima tulaydi. Tovar (mahsulot) lar qabul qilingandan keyin yana junatilishi yoki saklanishi kerak bo'lган hollarda "Sotib oluvchi" jarima undirishdan tashqari, oz kuchi bilan, lekin "Sotuvchi" xisobidan tovar (mahsulot) larni urashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shaxardagi "Sotuvchi"dan tovar (mahsulot) larni urab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

## 5. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI

5.1. Shartnoma buyicha uz majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish b'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish buyicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

5.2. Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darxol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (un) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

5.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruption xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruption xolatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini tuxtatib quyishi mumkin

## NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI

Kelishmovchiliklar va baxslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha xal etish choralarini ko'radilar.

Tomonlar kelishmovchilik va baxslarni xal etish uchun bevosita tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilishga haqlidir.

Tomonlar iqtisodiy sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi Javobgar joylashgan manzildagi iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

## FORS-MAJOR

Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi xolatlari kelib chiqsa va bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 fevalidagi 63-sonli "Engib bulmas kuch (fors-major) holatlarining mayjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida kuzda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

## BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomada tomonlarning kuzda tutilmagan uzo munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

Mazkur shartnoma gaznachilik boshqarmasida majburiy ruyxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil "31" dekabrigacha amal qiladi.

9.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga kura 10 kun davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha uzo hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval tuxtilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarining bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

9.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi

YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

«SOTUVChI»  
(PRODAVES)

Tashkilotnomi: "ELDOR DONIYOR" XK  
Manzil:  
Tel/Faks:  
x/r: 20208000204761903001  
Bank nomi: ATB Agrobank Beruniy filiali  
STIR kodi: 301098336  
MFO: 00607  
OKONX:  
El adres:

OKED:

N.Primov



«SOTIB OLUVChI»  
(POKUPATEL)

Tashkilot nomi: Beruniy tuman tibbiyot birlashmasi

Manzil: X.Do'stligi № 3  
Tel.: 61-527-27-53  
STIR kodi: 200937347  
OKONX: 91511 MFO: 00014  
shaxsiy hisob varag'i:  
shxr 100022860352077073101054001  
Yagona G'aznachilik hisob - yaraglari (YaG'H):  
23402000300100001010

Bank nomi: Markaziy bank g. Tashkent  
Gaznachilik bo'limmasi STIR: 201122919

Rahbar \_\_\_\_\_ D. Palvanov  
(imzo)



M.O'.



Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan.  
Elektron raqamli imzoning haqiqiyigini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	DILMURAT PALVANOV BAZARBAYEVICH
Imzolangan sana	15.12.2022 13:30
Hujjat kodi	PY4807020837
Hulosa kodi	KH0516883038

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

**KH0516883038**

- 1. Loyihaning turi : Shartnoma**
- 2. Loyihaning nomi: “**ELDOR DONIYOR” XK bilan 1 774 515 000 ( Bir milliyard yetti yuz yetmish to‘rt million besh yuz o‘n besh ming ) sum 00 tiyinni tashkil qiladi****
- 3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Beruniy tumani Tibbiyot birlashmasi tomonidan 13.12.2022 yilda kiritilgan.**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Beruniy tumani  
yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi  
markaz rahbari:**



**M.M.KAMALOVA**

13.12.2022

«ТАСДИҚЛАЙМАН»

Беруний тумани туман тиббиёт  
бирлашмаси

Д. Палванов

«\_\_» декабрь 2022-йил



Беруний тумани туман тиббиёт бирлашмаси “медицина мебеллари” сотиб  
олиш мақсадида энг яхши таклифларни танлаб олиш комиссиясининг энг яхши  
таклифларини танлаб олиш бўйича ўтказилган  
202067 -сонли мажлиб баённомаси

Катнашчилар:

Ф.И.Ш

Комиссия бошлиғи:

Д.Б. Палванов

Лавозими

туман тиббиёт бирлашмаси  
бошлиғи

Комиссия азолари:

Р.Ж. Кутлимуратов

туман тиббиёт бирлашмаси  
хужалик ишлари бўйича  
муовини

Д.Қ. Курбанбаев

туман тиббиёт бирлашмаси бош  
врач муовини

И. К. Матякупов

туман тиббиёт бирлашмаси бош  
бош хисобчи

Ж.Р. Махамбетов

Давлат харидлари буйича  
мутахасиси

А.Д. Бекчанов

Куп тармокли поликлиника  
мудири

Г. Матмуратов

“Алтинсой” оиласи  
поликлиникаси хўжалик  
ишлари мудири

**КУН ТАРТИБИДА:**

Беруний тумани туман тиббиёт бирлашмаси – Танлаб олиш комиссияси  
бошлиғи Д. Б. Палванов мажлисда танлаш комиссиясининг 8 азосидан 7 таси  
катнашганлигини айтиб ўтти, танлаш комиссияси мажлисини очик деп эълон қилди.

Танлаш комиссияси секретари танлаш комиссиясига қуидаги маълумотларни  
тақдик қилди:

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги 684-сонли “Давлат  
харидлари тўғрисида”ги Қонунининг (кейинги ўринларда - Қонун)  
58-моддасига мувофиқ енг яхши таклифларни танлаб олиш ўтказилиши тўғрисида  
маҳсус информацион порталига (<http://etender.uzex.uz>) эълон танлов  
катнашчиларининг қабул қилиш муддати тамомланишидан 5 (беш) иш кун олдин  
давлат буюртмачиси томонидан ўз кабинети томонидан жойлаштирилган  
**2022 йил 30 ноябрь куни 22110012202067-сонли лот** бўйича давлат харидлари  
маҳсус ахборот порталига жойлаштирилган ва 2022 йил 09 декабрь №202067 сонли

баённомаси бўйича 13 декабрь 2022 йилгача ишчи комиссияси номига хеч қандай мурожаат келиб тушмади.

Ўзбекистон Республикаси “Давлат харидлари тўғрисида”ги Низомга мувофиқ ва юкорида кўрсатилган маълумотларни ҳисобга олган ҳолда Танлов комиссияси

### **ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

1. Беруний тумани туман тибиёт бирлашмаси “медицина мебеллари” сотиб олиш мақсадида ўтказилган Танлаб олишда танлов хужжатларини ва танлов шартлари бўйича енг яхши шартларни тақдим қилган ҳамда танлаб олиш ғолиби деб топилган ELDOR DONYOR XК **1 774 515 000 сум** (КҚС солиғи билан) билан шартнома тузилсин.
2. Голиб ташкилот танлаб олиш шартлари асосида шартнома тузишдан бош тортган ҳолатда шартнома тузиш ҳуқуқи кейинги қатнашчи (резерв) етиб, **GRAND WOODWORKERS МСНJ** белгилансин. Бунда ғолиб қатнашчи тақдим қилган суммасидан ошмаган суммада шартнома тузиш мумкинлиги белгилаб қуилсин.
3. Низом талабларига мувофиқ танлов қатнашчиларининг тақдим қилган маълумотларини кўриб чиқиши ва баҳолаш муддати таклифлар бериш тамом бўлишидан 10 (ун) кундан ошмаслиги маълумот учун қабул қилинсин.
4. Ташкилотнинг ҳисоб-китоб бўлимига танлов якуни бўйича ғолиб ташкилот билан шартнома хужжатларини таёrlаш ва шартнома тузилганидан кейин 3 (уч) иш куни ичida махсус ахборот порталига (<http://etender.uzex.uz>) жойлаштириш топширилсин.
5. Танлов комиссияси секретари ушбу танловга тегишли барчи хужжатларни белгилangan тартибда сакланишини таъминласин.

### **Қатнашчилар:**

#### **Комиссия котиби:**

Р.Ж. Кутлимуратов

#### **Комиссия азолари:**

Д. К. Курбанбаев

И. К. Матякупов

Ж.Р. Махамбетов

А.Д. Бекчанов

Г. Матмуратов